

**Zebunisso RAXMONOVA,**  
 Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti  
 E-mail: zebunisso.rakhmonova@gmail.com  
 Tel: +998944909211

NamMTI professori, f.f.d. D.Xoshimova taqrizi asosida

## PROBLEMS OF THE SEMANTIC FIELD OF VERBALIZERS OF THE CONCEPTUAL BINARY OPPOSITION HAPPINESS AND UNHAPPINESS IN THE ENGLISH LANGUAGE

Annotation

This article investigates the problems of analyzing the verbalizers of the conceptual binary opposition of happiness and unhappiness in the English language within the semantic field and the issues of their hierarchical location between language levels. The article also shows the importance and relevance of analyzing the concept through the semantic field.

**Key words:** Concept, conceptual binary oppositions, field theory, semantic field, language levels, verbalizers, linguistic means.

## ПРОБЛЕМЫ СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ ВЕРБАЛИЗАТОРОВ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ БИНАРНОЙ ОППОЗИЦИИ СЧАСТЬЕ И НЕСЧАСТЬЕ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье исследуются проблемы анализа вербализаторов концептуальной бинарной оппозиции счастья и несчастья в английском языке внутри семантического поля и вопросы их иерархического расположения между языковыми уровнями. Также в статье показана важность и актуальность анализа концепта через семантическое поле.

**Ключевые слова:** Концепт, концептуальные бинарные оппозиции, теория поля, семантическое поле, языковые уровни, вербализаторы, лингвистические средства.

## INGLIZ TILIDA BAXTLILIK VA BAXTSIZLIK KONSEPTUAL BINAR OPPOZITSIYASI VERBALIZATORLARINING SEMANTIK MAYDONI MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilidagi baxtlilik va baxtsizlik konseptual binar oppozitsiyasi verbalizatorlarining semantik maydon ichida tahlil qilish muammolari hamda ularning til sathlari aro ierarxik joylashuvi masalalari tadqiq qilingan. Shuningdek maqolada konseptning semantik maydon orqali tahlil qilishning ahamiyati va dolzarbligi ko'rsatib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Konsept, konseptual binar oppozitsiyalar, maydon nazariyasi, semantik maydon, til sathlari, verbalizatorlar, lisoniy vositalar.

**Kirish.** Jahon tilshunosligida "baxt" konsepti va uning nutqda voqelanishini ta'minlovchi lisoniy birliklarni kognitiv yonashuvlar asosida tahlil qilish va bu orqali muayyan til egalarining va ushbu tilda so'zlashuvchi o'zga madaniy qatlam vakillarining olam lisoniy manzarasini yaratishidagi umumbashariy va ma'lum millatning o'zigagina xos bo'lgan mentalital jihatlarni o'rganish ustuvorlik kasb etmoqda. Mazkur jarayonda global kommunikatsiya vositasiga aylanib borayotgan ingliz tili orqali mentalital va emotsional xarakterli lisoniy tuzilmalarning nutqda ifoda planiga o'tishiga xizmat qiluvchi lisoniy hodisalarning konseptlashuv qonuniyatlarini o'rganish soha taraqqiyotiga xizmat qiladi.

So'zning lug'aviy ma'nolarini tahlil qilish so'z semantikasiga qaratilgan tadqiqot usuli bo'lib, konseptga bog'liq til birliklarini aniqlashni ham o'z ichiga oladi [1]. Mavjud leksikografik manbalarda ingliz tilidagi "happiness/unhappiness" konseptlarining verbalizatorlari tahlili shuni ko'rsatdiki, mazkur konseptosferaning periferik ko'rsatkichlari juda ham keng masshtabga ega bo'lib, ular tayanch konsept nominantiga sinonimik tarzda munosabatga kirishadi va uning nominativ maydonini hosil qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ingliz tilida baxtlilik va baxtsizlik konseptlarining semantik maydonini tadqiq qilish muammolari xususida ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ingliz tadqiqotchilaridan P.Jonson-leyrd, K.Otley [2] va J.Davitz [3] kabilarning emotsional so'zlarni semantik maydonda klassifikatsiya qilish haqidagi fikrlari soha taraqqiyoti uchun xizmat qilgan. Xususan, Ingliz psixolingvistlari P.Jonson-leyrd va K.Otley [2] emotsiyani ifodalovchi so'zlarning semantik maydoni tadqiq qilib, ushbu so'zlarning semantik klassifikatsiyasini aniqladilar. Mazkur klassifikatsiyaga ko'ra emotsiyani ifodalovchi so'zlar 7 turdagi kategoriyaga ajratiladi.

Birinchi kategoriyaga oddiy emotsiya nomlarini ifodalovchi so'zlar kiritilgan va ular insonning kayfiyatini qolaversa shaxsiyatini ifodalovchi so'zlardir. Mazkur kategoriyada "happiness" uchun light-hearted, carefree, happy, high, euphoric, ecstatic kabi so'zlar kiritilgan bo'lsa, "sadness" uchun wistful, gloomy, sad, melancholy, depressed, wretched kabi so'zlar kiritilgan [2].

Ikkinchi kategoriyaga emotsiyaga aloqador bo'lgan so'zlar jamlangan. Baxtlilik uchun like, love, adore kabi so'zlar baxtsizlik uchun miss, mourn, grieve for kabilari misol qilib keltirilgan.

Semantik klassifikatsiyaning uchinchi kategoriyasiga sababi ma'lum bo'lgan emotsiyani ifodalovchi so'zlar kiritilgan. Mazkur so'zlar nutq vaziyatida muayyan emotsiyani his qilib turgan insonga nisbatan ishlatiladigan so'zlardir. Ushbu kategoriyada "happiness" uchun cheered, enjoyment, glad, delight, overjoyed kabi so'zlarni "sadness" uchun dejection, sorrow, heart-broken, inconsolable, desolate kabi so'zlarni misol qilib keltirilgan. Ushbu kategoriyani tushintirish uchun tadqiqot mualliflari happy va glad so'zlarini misol qilib keltiradilar. "Muloqot jarajonida "I am happy but I don't know why" yoki "I am happy but I know why" deb aytish mumkin, ammo "I am glad but I don't know why" deb bo'lmaydi [2]" deya ta'kidladilar chunki ushbu so'z xursandchilikning sababi ma'lum bo'lgandagina ishlatilishi mumkin: "I am glad because the winter is over"

To'rtinchi kategoriyaga emotsiyani vujudga kelishiga sabab bo'luvchi so'zlar kiritilgan. Baxtlilikni vujudga kelishiga sabab bo'luvchi so'zlar content, please, amuse, delight, transport, enthrall, exhilarate kabilari. Baxtsizlik uchun deflate, disillusion, dampen, depress, sadden, disappoint, desolate kabilardir. Qolgan kategoriyalar haqidagi to'liq ma'lumotni P. Jonson-leyrd va Keyt Otleyning "The language of emotions: An analysis of a semantic field [2]" nomli ilmiy risolasidan olish mumkin. Ta'kidlash joizki ushbu tadqiqot ishi 5 turdagi emotsiyalarni (happiness, sadness, fear, anger, disgust) ifodalovchi 590ta so'zni

semantik maydon orqali tadqiq qiladi. Ammo, mazkur tadqiqot ishi faqatgina leksik sathda amalga oshirilgan va emotsiyani ifodalovchi frazeologik birliklar, maqollar va idiomalar ushbu tadqiqot doirasiga kiritilmagan.

Rus tadqiqotchilaridan G. Unarokova [4] rus va ingliz tillarida baxtlilikning leksik sinonimik qatorini yadro va periferial zonada tadqiq qilgan bo'lsa, Z. Ishmuratova [5] baxt konseptini ingliz va nemis tillarining frazeologik sathida semantik maydonini tahlil qiladi. Tadqiqotchi ingliz tilida baxt konseptini ifodalovchi frazeologik birliklar semantik maydonining yadro zonasida 16ta (Bursting with joy, Full of joys of spring...), yaqin periferial zonasida 9ta (Happy as a king, Happy camper...), uzoq periferial zonasida 25ta (Fun and games, To have a whale of time...) frazeologik birlik mavjud ekanligini aniqlaydi.

O'zbek tadqiqotchilari orasida ham "baxt" konseptining semantik maydonini aniqlashga qaratilgan bir qator ilmiy ishlar mavjuddir va ushbu tadqiqot ishlari baxtlilik va baxtsizlik konseptlarining semantik maydonini aniqlash masalalarining rivojiga katta hissa qo'shgan. Jumladan, M.Qosimova nafaqat baxtlilik konseptining balki baxtsizlik konseptining ham leksik-sinonimik qatorda semantik maydonini "yadro", "yadro osti zonasi", "yaqin periferiya", "uzoq periferiya", "tashqi periferiya" kabi zonalarda diagramma ko'rinishida tahlil qilgan [6]. D.U.Ashurova hamda M.R.Galiyeva [7] esa happiness verbalizatorlarining til sathlarida joylashuvini misollar bilan ko'rsatib bergan ammo, baxtsizlik konsepti ishda ko'rib chiqilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot ishimizda baxtlilikning semantik maydonini aniqlash masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar natijalarini inobatga olgan holda baxtlilik va baxtsizlik konseptual binar oppozitsiyasi verbalizatorlarining semantik maydoni tilning barcha sathlarida namoyon bo'lishini ko'rsatib berishga harakat qildik.

Ingliz tilida baxtlilik va baxtsizlik konseptual binar oppozitsiyasining semantik maydonini aniqlash uchun tilning eng quyi sathlaridan toki eng yuqori sathlariga qadar mazkur konseptlarning verbalizatorlarini aniqlashtirish maqsadga muvofiq. Albatta, bu jarayonda barcha til birliklarini jamlashning iloji yo'q, shu sababdan ularni til sathlarida ierarhik joylashuvini umumiy tasniflashni lozim topdik.

**Tahlillar va natijalar.** Baxtlilik/baxtsizlik konseptlarining tilda voqelanishida xizmat qiluvchi fonetik sathdagi vositalar. Nutqning tezligi, baland ohangi va rang-barang intonatsiya kabilar baxtiyorlikni ifodalayotgan inson nutqiga xos jihlatlar hisoblansa, past ohang, nutqning sekinligi va sokinligi baxtsizlik holatidagi inson nutqiga xos jihlatlar hisoblanadi. Bundan tashqari so'z tarkibidagi unli yoki undoshlardan birining cho'zib talaffuz qilinishi bilan ham baxtiyorlik ifoda etiladi. Masalan: squeeeee, wooooo, yippeeee kabilar.

Yes, I wanted to be able to walk down a street without men calling out comments about my looks (oh wait, they're just telling me I'm beautiful, SQUEEEEE!!!! This is better than chocolate! And new shoes!) [8].

Hey, this is fun! Whew! Yippeeee! Ha ha! The alien technology failed one dissipate... move on!

To Arnel, I love you. Woooo! Hi Arnel! Thank you. I'd like to thank my longtime attorney, Lee Philips.

Baxtlilik/baxtsizlik konseptlarining tilda voqelanishida xizmat qiluvchi morfologik sathdagi vositalar. Ingliz tilida bir necha turdagi morfemalar "baxtlilik" va "baxtsizlik" konseptual binar oppozitsiyasi voqelantiruvchilarining yasallishiga xizmat qiladi.

prefiksalar orqali: un- (happy/unhappy), mis- (fortunate/misfortunate), dis- (satisfaction/dissatisfaction), a- (apathy)

suffiksalar orqali: -ful (joyful/sorrowful), -ness (happiness/unhappiness), -ment (contentment), -less (hopeless), -ous (joyous), -ic (euphoric/melancholic)

Baxtlilik/baxtsizlik konseptlarining tilda voqelanishida xizmat qiluvchi leksik sathdagi vositalar. Ingliz tilidagi "baxtlilik" va "baxtsizlik" konseptual binar oppozitsiyasining tilda ifodalanishini ta'minlovchi leksik birliklarni so'z turkumlari doirasida guruhlariga ajratib tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Ot so'z turkumida baxtlilik konsepti uchun: happiness, pleasure, joy, delight, contentment, ecstasy va boshqalar. Baxtsizlik konsepti uchun misery, sorrow, despair va boshqalar

Sifat so'z turkumida baxtlilik konsepti uchun joyful, blissful, content va baxtsizlik konsepti uchun sad, miserable, depressed kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Fe'l so'z turkumida baxtlilik konsepti uchun rejoice, celebrate, cherish kabilar hamda baxtsizlik konsepti uchun mourn, grieve, lament kabilar voqelantiruvchilari hisoblanadi. Fe'l so'z turkumi doirasida baxtlilik va baxtsizlik konseptlarining sifatdosh va ravishdoshlar yordamida verballashuvini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Baxtlilik konseptini ifodalovchi ravishdoshlar/Present participle denoting happiness: smiling, laughing, dancing, singing, hugging

Baxtlilik konseptini ifodalovchi sifatdoshlar/Past participle denoting happiness: smiled, laughed, danced, sung, hugged

Baxtsizlik konseptini ifodalovchi ravishdoshlar/ Present participle denoting unhappiness: crying, frowning, sulking, moping, brooding

Baxtsizlik konseptini ifodalovchi sifatdoshlar/Past participle denoting unhappiness: cried, frowned, sulked, moped, brooded

Ravish so'z turkumida baxtlilik konsepti uchun happily, joyfully, cheerfully kabilarni, baxtsizlik konsepti uchun esa sadly, miserably, gloomily kabilarni misol qilishimiz mumkin.

Son so'z turkumida baxtlilik konseptini ifodalash uchun 7, 9, 3, 8 raqamlarini misol qilib keltirish mumkin. 7 raqami ko'plab dunyo mamlakatlari qatorida ingliz tili va madaniyatida ham omad, baxt va saodat keltiruvchi raqam sifatida ishoniladi. 3 va 9 raqamlari sehrli va sirli raqamlar sifatida baxtga ishora qilsa 8 raqami ingliz madaniyatida boylik va baxtlilik belgisi hisoblanadi. Baxtsizlik konsepti uchun 0, 4, 6 va 13 raqamlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ingliz madaniyatida 13 raqamini baxtsizlik, g'am-qayg'u va omadsizlik belgisi sifatida ko'ruvchi insonlar soni ham sezilarli darajada ko'pdir [9]. Ba'zi amerikaliklar esa hatto mehmonxonalarda 13-qavat yoki 13-xonada yashashni umuman xohlamaydilar [10]. 0 soni esa mavjud emaslik va yoki hech qanday ahamiyatga ega emaslik kabi ma'nolarda salbiy ma'no ifodalasa, 4 raqami o'lim va musibat, 6 raqami esa omadsizlik ramzi hisoblanadi.

Baxtlilik/baxtsizlik konseptlarining tilda voqelanishida xizmat qiluvchi sintaktik sathdagi vositalar. (sintaksemalar)

Frazemalar (so'z birikmalari): baxtlilik konsepti uchun quyidagi so'z birikmalari eng faol so'z birikmalar hisoblanadi: Happy marriage, happy couple, happy ending, happy hour, happy for you [11]. Baxtsizlik konsepti uchun esa quyidagi faol so'z birikmalarini misol qilib keltirishimiz mumkin: unhappy people, unhappy marriages, unhappy man, unhappy childhood, unhappy experience [11].

Sentensemalar (gaplar):

sodda gaplar: I am happy today. He was unhappy.

qo'shma gaplar: I was happy with my job but the balance between work and life had been hit seriously. She was unhappy but she wasn't going to argue.

so'roq gaplar: Are you happy that you will finally be freed from this horrible entrapment in a miserable and meaningless life? Are you unhappy with your child's pediatrician and want to find a new one?

buyruq gaplar: Please be happy for me. You and me. We both deserve to be happy for a change. / it's okay, Daddy, don't be sad [11] (sentensemalar uchun berilgan barcha misollar, COCA ingliz tili korpusidan olindi).

Baxtlilik/baxtsizlik konseptlarining tilda voqelanishida xizmat qiluvchi frazeologik vositalar. (frazеomalar). Ingliz tilida baxtlilik va baxtsizlik konseptlarini ifodalash uchun juda ham ko'p miqdorda frazeologik birliklardan foydalaniladi. Quyida mazkur konseptlarni voqelantirish uchun faol qo'llaniladigan frazeologik birliklarga misollar keltiriladi. Baxtlilik konsepti uchun feel on the top of the world, to be on cloud nine, over the moon kabilar, baxtsizlik uchun esa to feel down in the dumps, feeling blue, reduce to tears kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Baxtlilik/baxtsizlik konseptlarining tilda voqelanishida xizmat qiluvchi tekstologik vositalar. (tekstemalar)

Happiness and sadness, Edward Clapham [12]

Happiness and sadness: the yin and yang of life;

Sunshine in the heart, a bouncy beat to life.

And guts-ache, emptiness, leaden paralysis of mind.

They come, they go, the bipolar of existence; or

Are they the boundaries of being?

Baxtlilik/baxtsizlik konseptlarining tilda voqelanishida xizmat qiluvchi paremiologik vositalar.

Maqollar:

Baxtlilik uchun: Call no man happy till he is dead.

Baxtsizlik uchun: Misery loves company

Matallar: Happiness is not something ready-made. It comes from your own actions. The greatest tragedy in life is not death, but a life without purpose.

Aforizmlar:

"Happiness in intelligent people is the rarest thing I know." — Ernest Hemingway, The Garden of Eden

"Unhappiness is best defined as the difference between our talents and our expectations" — Eduard de Bono

Baxtlilik/baxtsizlik konseptlarining tilda voqelanishida xizmat qiluvchi paralingvistik vositalar.

Baxtlilikni ifodalash uchun grinning from ear to ear, beaming with joy, bursting with happiness kabi til birliklari ishlatilsa, baxtsizlik konseptini ifodalash uchun crying her eyes out, wailing in sorrow, knit one's brow, get a dirty look from someone, sighing heavily, kabi til birliklari ingliz tilida faol qo'llaniladi.

**Xulosalar.** Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, ingliz tilida baxtlilik va baxtsizlik konseptual binar oppozitsiyasi verbalizatorlarining semantik maydoni tarkibiga kiruvchi barcha lisoniy vositalarni bir yerga jamlashning iloji yo'q, ammo biz yuqorida keltirib o'tgan usul orqali, verbalizatorlarning til sathlari aro qanday namoyon bo'layotganini hamda ushbu jarayonda qaysi lisoniy vositalar ishtirok etayotganini ko'rsatib berishimiz mumkin. Bizningcha, ushbu usul orqali chet tillarni o'qitish va o'rganishda ijobiy va salbiy emotsiyalarni ifoda etilishini ta'minlovchi til birliklarini bir butunning tarkibiy qismlari sifatida o'zlashtirilishiga erishish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Пименова М.В. К вопросу о методике концептуальных исследований (на примере концепта звезда) //Проблемы концептуализации действительности и моделирования языковой картины мира: с б. науч. Трудов, 2009. – №. 4. – С. 15-19
2. Johnson-laird P. N., Oatley K. The language of emotions: An analysis of a semantic field. Cognition & Emotion, 3:2, 1989. – P.81-123
3. Davitz J. R. The language of emotion. Academic Press, 2013. – 208 p
4. Унарокова Г. Ш. Лексико-семантическая организация концепта «СЧАСТЬЕ/HAPPINESS» в русском и английском языках. «Вестник АГУ». Выпуск 2 (140) 2014. – С.87-91
5. Ишмуратова З.А. Вербализация концепта «счастье» в английской и немецкой фразеологии. Выпускная квалификационная работа по направлению 44.03.05 Педагогическое образование (с двумя профилями подготовки), Челябинск: 2022. – 68 с
6. Қосимова З. М. Ўзбек ва инглиз тилларида бахтлилик ва бахтсизлик концептуал бинар оппозицияси. фалсафа. фан. док.дисс.(PhD). Андижон: 2021. – 210 б.
7. Ashurova D. U. Galiyeva M.R. Cognitiv linguistics. O'quv qo'llanma – Toshkent: 2018. – P.40
8. Elektron manba: <https://www.english-corpora.org/coca/> [M.S: 21.01.2024]
9. Elektron manba: <https://sc.edu/uofsc/posts> [M.S: 21.01.2024]
10. Elektron manba: <https://news.gallup.com/poll/26887/thirteen-percent-americans-bothered-stay-hotels-13th-floor.aspx> [M.S: 21.01.2024]
11. Elektron manba: <https://www.english-corpora.org/coca/> [M.S: 21.01.2024]
12. Elektron manba: <https://www.poemhunter.com/poem/happiness-and-sadness-2/> [M.S: 21.01.2024]